



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA
UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARI
FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK
KO'RSATKICHLARI**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA UMUMIY O'RTA TA'LIM TIZIMI

Umumiy o'rta ta'limning muddati 11 yil bo'lib, uzluksiz ta'lim tizimining majburiy mustaqil turi hisoblanadi.

Umumiy o'rta ta'lim umumta'lim muassasalarida uzluksiz tarzda, majburiy bo'lgan o'n bir yil davomida amalga oshiriladi.


Umumiy o'rta ta'lim uch bosqichdan iborat bo'lib, kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi.



Umumta'lim muassasalarining quyidagi turlari mavjud: boshlang'ich maktab, umumiy o'rta ta'lim maktabi, ayrim fanlarga ixtisoslashtirilgan maktab, ayrim fanlarga ixtisoslashtirilgan maktab-internat, ijod maktabi, Prezident maktabi, olimpiya va milliy sport turlari bo'yicha davlat ixtisoslashtirilgan maktab-internati, jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internat, psixik (intellektual) rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan (yordamchi) maktab, maktab-internat, sanatoriy turidagi ixtisoslashtirilgan maktab-internat, respublika ixtisoslashtirilgan o'quv-ta'lim muassasasi.


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARI FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Umumta'lim muassasalari soni, birlikda
(o'quv yili boshiga)



O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan umumta'lim muassasalari soni 2021/2022 o'quv yili boshiga **10 289** tani tashkil etib, 2018- yilga nisbatan **515** taga ko'paygan.

**Hududlar kesimida umumta'lim muassasalari soni, birlikda
(2021/2022 o'quv yili boshiga)**



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARI FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI


Faoliyat yuritayotgan nodavlat umumta'lim tashkilotlari soni, birlikda (o'quv yili boshiga)

2021- yil

2020- yil

2019- yil

2018- yil




Nodavlat ta'lim tashkilotlari tomonidan ta'lim faoliyati davlat ta'lim standartlari va davlat talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

So'nggi yillarda ta'limning ushbu turiga qaratilayotgan e'tibor sababli nodavlat umumta'lim tashkilotlari soni yildan-yilga ortib bormoqda.

Birgina 2021- yilning o'zida faoliyat yuritayotgan nodavlat umumta'lim tashkilotlari soni **33** taga ko'paygan, ushbu raqamlarni 2018- yilga nisbatan taqqoslansa **77** taga ortganini kuzatish mumkin.

Nodavlat umumta'lim tashkilotlarining hududlar kesimida taqsimlanishi, birlikda (2021/2022 o'quv yili boshiga)



Nodavlat umumta'lim tashkilotlari sonining, boshqa hududlarga nisbatan yuqoriligi bo'yicha Toshkent shahri, Farg'ona, Andijon, Buxoro, Samarqand, Namangan va Xorazm viloyatlari alohida o'ringa ega.


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARI FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Umumta'lim muassasalarining turlari bo'yicha taqsimlanishi (2021/2022 o'quv yili boshiga, birlikda)


Umumta'lim muassasalari uch turga bo'linadi: boshlang'ich maktablar, umumiy o'rta maktablar va boshqalar.

2021/2022 o'quv yili boshiga **10144** ta umumiy o'rta ta'lim maktablari, **56** ta boshlang'ich maktablar va **89** ta boshqa muassasalar faoliyat yuritmoqda.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida jami **6272,3** ming, boshlang'ich ta'lim muassasalarida **7,6** ming, boshqa muassasalarda **21,8** ming va boshqa ta'lim muassasalarida tashkil etilgan sinflarda **2,8** ming nafar o'quvchilar tahsil olmoqda.




Umumta'lim muassasalarida tahsil olayotgan o'quvchilar soni, ming kishi (2021/2022 o'quv yili boshiga)



Umumta'lim muassasalarida tahsil olayotgan o'quvchilar soni 2016- yilga nisbatan taqqoslaganda **1479,6** ming nafarga ko'paygani yoki **130,7 %** ga oshgani kuzatildi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARI FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI


Umumta'lim muassasalarida tahsil olayotgan o'quvchilarning hududlar kesimida taqsimlanishi (2021/2022 o'quv yili boshiga ming kishi)



2021/2022 o'quv yili boshiga umumta'lim muassasalarida tahsil olayotgan o'quvchilarning umumiy soni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Samarqand (**747,6** ming nafar), Farg'ona (**681,7** ming nafar) hamda Qashqadaryo viloyatlarida (**640,4** ming nafar) qayd etilgan bo'lsa, boshqa hududlarga nisbatan eng kam ko'rsatkich Navoiy (**183,7** ming nafar) va Sirdaryo viloyatlari (**156,5** ming nafar) hissasiga to'g'ri keldi.


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARI FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Nodavlat umumta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar soni (o'quv yili boshiga)



2021- yilda nodavlat umumta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar sonini 2016- yilga nisbatan taqqoslaganda **25 706** nafar o'quvchiga ko'paygan.

Nodavlat umumta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilarning hududlar kesimida taqsimlanishi (2021/2022 o'quv yili boshiga)



Nodavlat umumta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilarning umumiy soni boshqa hududlarga nisbatan yuqoriligi bo'yicha, Toshkent shahri, Farg'ona, Andijon, Samarqand, Buxoro, Namangan, Xorazm va Jizzax viloyatlari alohida o'ringa ega.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARI FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Umumta'lim muassasalarida tahsil olayotgan
o'quvchilarning gender bo'yicha taqsimlanishi, %
(2021/2022 o'quv yili boshiga)



48,7%

**Qiz bolalar - 3068,9
ming nafar**



51,3%


**O'g'il bolalar - 3235,7
ming nafar**

Umumta'lim muassasalarida
tahsil olayotgan jami o'quvchilar
100 % deb hisoblansa, shundan
48,7 % ini qiz bolalar, 51,3 % ini o'g'il
bolalar tashkil etmoqda.

Hududlar kesimida o'quvchilarning gender bo'yicha taqsimlanishi, ming nafar

**Qiz bolalar,
ming nafar**


**O'g'il bolalar,
ming nafar**




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARI FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Umumta'lim muassasalari bitiruvchilari
(2021/2022 o'quv yili boshiga, ming kishi)

9-sinf bitiruvchilari



11-sinf bitiruvchilari




2021- yilda O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan umumta'lim muassasalarida 11-sinfni jami **442,2** ming nafar o'quvchi tamomlagan. Hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Samarqand viloyatiga **50,9** ming nafar o'quvchi to'g'ri kelgan, boshqa hududlarga nisbatan past ko'rsatkich esa Sirdaryo viloyatiga ya'ni **11,3** ming nafar o'quvchi to'g'ri keldi.

Umumta'lim muassasalarining 9-sinfni **490,3** ming nafar o'quvchi tamomlagan. Eng yuqori ko'rsatkich Samarqand viloyatiga (**54,3** ming nafar o'quvchi) va Farg'ona viloyatiga (**54,3** ming nafar o'quvchi) to'g'ri kelgan, eng past ko'rsatkich Navoiy (**14,9** ming nafar o'quvchi) va Sirdaryo (**11,7** ming nafar o'quvchi) viloyatiga to'g'ri keldi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARI FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Umumta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilar soni, ming kishi (2021/2022 o'quv yili boshiga)



Umumta'lim muassasalarida 2021/2022 o'quv yili boshiga jami **510,0** ming nafar o'qituvchilar (o'rindoshlarsiz) faoliyat yuritmoqda, ushbu ko'rsatkichni 2016- yilga nisbatan taqqoslaganda (2016- yil **390,6** ming nafar) 30,6 % ga oshgani kuzatildi. O'qituvchilarning 53,1 % i qishloq maktablarida, 46,9 % i shahar maktablarida faoliyat yuritmoqda.

Nodavlat umumta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilar soni (o'quv yili boshiga)



2021- yilda nodavlat umumta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilar sonini 2016- yilga nisbatan taqqoslaganda **2972** nafar o'qituvchiga ko'payganligini kuzatish mumkin.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARI FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Umumta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan
o'qituvchilarning gender bo'yicha taqsimlanishi, % da
(2021/2022 o'quv yili boshiga)




68,7 %



31,3 %



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARI FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Smenalar bo'yicha mashg'ulot olib boradigan umumiy o'rta ta'lim muassasalari ulushi* (2021/2022 o'quv yili boshiga)



Barcha ta'lim muassasalaridan, bir smenada ta'lim yuritiladiganlari **2588** ta (25,4%), ikki smenada **7580** ta (74,4%), uch smenada **19** ta (0,2%) ni tashkil etdi. Birinchi smenada **4134,6** ming, ikkinchi smenada **2140,7** ming, uchinchi smenada **4,6** ming o'quvchi tahsil olmoqda.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida sinflar kesimida o'quvchilar soni (2021/2022 o'quv yili boshiga, ming nafar)




Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida 2021/2022-o'quv yili boshiga sinflar kesimida tahsil olayotgan o'quvchilarning umumiy soni bo'yicha 2-sinfda **650,3** ming o'quvchi bilan eng yuqori ko'rsatkich qayd etilgan bo'lsa, 11-sinfda **392,9** ming o'quvchi bilan boshqa sinflarga nisbatan eng kam o'quvchiga ega sinf sifatida qayd etildi.

* Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida
nuqsoni bo'lgan bolalar maktablarisiz


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARI FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

**Umumta'lim muassasalarida sinflarda
o'quvchilarning o'rtacha soni, nafar*
(2021/2022 o'quv yili boshiga)**



Ma'lumot o'rnida: O'zbekiston Respublikasi ta'lim to'g'risidagi qonunning 9-moddasiga muvofiq, umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining sinflarida (guruhlarida) ta'lim oluvchilar soni o'ttiz besh nafardan oshmasligi kerak.

**Umumta'lim muassasalarida sinflar soni, ming birlik*
(2021/2022 o'quv yili boshiga)**



Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida 2021/2022 o'quv yili boshiga jami sinflar soni **247,8** mingtani tashkil etdi.

*Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida
nuqsongi bo'lgan bolalar maktablarisiz

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARI FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI


**Hududlar kesimda umumta'lim muassasalarida
o'qitilayotgan tillar bo'yicha o'quvchilar soni*
(2021/2022 o'quv yili boshiga)**

	Ta'lim olayotgan tillar bo'yicha o'quvchilar soni, nafar							
	o'zbek	qoraqal- poq	turkman	tojik	qirg'iz	qozoq	rus	boshqa- lar
O'zbekiston Respublikasi	5355701	125850	10902	65358	8183	53558	642636	1538
Qoraqalpog'iston Respublikasi	152360	125565	10347	-	-	20411	43615	-
<i>viloyatlar:</i>								
Andijon	514702	-	-	-	2689	-	54715	144
Buxoro	303963	-	-	8	-	684	20192	-
Jizzax	238882	-	-	1109	3936	67	11860	-
Qashqadaryo	604991	-	-	11039	-	-	17126	-
Navoiy	158416	285	-	760	-	8355	15241	-
Namangan	466127	-	-	1123	289	-	43409	-
Samarqand	680536	-	-	8684	-	-	56485	-
Surxondaryo	480497	-	-	19715	-	-	9143	-
Sirdaryo	145482	-	-	721	-	57	9948	-
Toshkent	408424	-	-	6924	780	23768	65560	-
Farg'ona	603412	-	-	15275	489	-	53867	144
Xorazm	333255	-	555	-	-	216	25629	-
Toshkent sh.	264654	-	-	-	-	-	215846	1250

* Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida
nuqsoni bo'lgan bolalar maktablarisiz

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARI FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

**O'qitiladigan tillar bo'yicha umumta'lim
muassasalarining taqsimlanishi*
(2021/2022 o'quv yili boshiga, birlikda)**



Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida 2021/2022 o'quv yili boshiga qoraqalpoq tilida-Qoraqalpog'iston Respublikasida **377** ta hamda Navoiy viloyatida **3** ta muassasada o'quvchilar ta'lim olishmoqda. Turkman tilida – Qoraqalpog'iston Respublikasida **41** ta hamda Xorazm viloyatida **3** ta muassasada o'quvchilar ta'lim olishmoqda. Tojik tilida – Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy, Namangan, Samarqand, Surxondaryo, Sirdaryo, Toshkent va Farg'ona viloyatlaridagi umumta'lim muassasalarida o'quvchilarga ta'lim berilmoqda. Qozoq tilida – Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Jizzax, Navoiy, Sirdaryo, Toshkent va Xorazm viloyatlaridagi umumta'lim muassasalarida o'quvchilarga ta'lim berilmoqda. Rus tilida ta'lim beruvchi umumta'lim muassasalari respublikaning barcha hududlarida mavjud.

* Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida
nuqsoni bo'lgan bolalar maktablarisiz

Statistik ko'rsatkichlarga izoh

Umumta'lim muassasalari – bolalarga ta'lim beruvchi, har tomonlama rivojlanishi va estetik tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi muassasalar.

Umumta'lim muassasasi – uzluksiz ta'lim tizimining asosiy bo'g'ini hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolariga davlat umumta'limi andozalari doirasida bepul umumiy ta'lim olishning kafolatlangan huquqi va imkoniyatini beradi.

Umumta'lim muassasalari o'quvchilariga – umumta'lim muassasalarining boshlang'ich va umum o'rta ta'lim bosqichlarida o'qiyotgan shaxslar hamda jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablarning o'quvchilari kiritiladi.

Umumta'lim muassasalari bitiruvchilariga – umumta'lim muassasalarida o'qishni to'liq bitqazgan va o'rta ma'lumot uchun shahodatnoma olgan shaxslar soni kiritiladi.

O'qituvchilar soni – o'quvchilarga ta'lim berish va kasbiy tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi, o'rta maxsus, oliy yoki maxsus tayyorgarlikdan o'tgan shaxslar soni.

Ta'lim muassasalarini bitirganlar – ta'lim muassasasida o'quv kursini to'liq tugatgan va tegishli ma'lumot (mutaxassislik)ga ega bo'lgan shaxslar soni.

Ta'lim muassasalariga qabul natijalari – muayyan o'quv yilida o'qishga qabul qilinganlarning sonini ko'rsatadi. Qabul qilinganlar soniga ikkinchi yil o'qiyotganlar va avval o'qiganlar orasidan qaytib kelganlar qo'shilmaydi.